

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar-oktyabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1116** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **5,0%** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1105** taga oshgan.


2018 yilning yanvar-oktyabr oyida Namangan viloyatida 2765 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,5 foizga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1116 ta (5,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21068 tani tashkil etgan.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,5 % ga oshgan hamda ularning soni 305 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (38,1%), Chust tumanida (8,1%), Namangan (7,0%), To'raqo'rg'on (6,2%), Uychi (6,1%) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)***


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Namangan viloyati	22182	100,0	21068	100,0
Namangan shapar	8559	38,6	8019	38,1
Mingbuloq tumani	878	4,0	871	4,1
Kosonsoy tumani	1283	5,8	1236	5,9
Namangan tumani	1550	7,0	1481	7,0
Norin tumani	900	4,0	869	4,1
Pop tumani	1203	5,4	1128	5,4
To'raq'org'on tumani	1388	6,2	1298	6,2
Uychi tumani	1309	5,9	1295	6,1
Uchq'org'on tumani	1099	5,0	1068	5,1
Chortoq tumani	1128	5,1	1082	5,1
Chust timani	1796	8,1	1700	8,1
Yangiq'org'on tumani	1089	4,9	1021	4,8

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,0 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va yil boshiga nisbatan bir xil ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy

100



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-4,2 f.p), sanoatda (-2.8 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (-3,8 f.p) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (-1,4 f.p) tashish va saqlashda (-0.5 f.p dan) kamaygan, qurilishda (+1,7 f.p), boshqa turlar (+10.0 f.p) hamda axborot va aloqa (+0.4 f.p) dan ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.11.2017 y.	01.11.2018 y.	farqi (+-)
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	7,3	-0,1
Sanoat	19,0	20,0	1,0
Qurilish	7,4	7,1	-0,3
Savdo	24,6	23,4	-1,2
Tashish va saqlash	3,5	3,7	0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,1	4,0	-0,1
Axborot va aloqa	1,5	1,5	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2,2	2,4	0,2
Boshqa turlar	30,3	30,6	0,3

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).


2018 yil 1 noyabr holatiga 17014 dan oshiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5647 ta, oilaviy korxonalar – 312 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–10324 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–27 tani va boshqa tijorat korxonalar 704 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 128 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 31 taga yoki 31,9 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 91 tasi qo'shma korxonalar, 37 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 136 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 52 ta (38,2%), Kosonsoy tumanida 12 ta (8,8%), Uychi tumanida 11 ta (8,1 %), Pop, Chortoq, Chust tumanlarida 9 tadan (6,6%), Namangan, Norin tumanlarida 6 tadan (4,4 %), Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida 5 tadan (3,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Mingbuloq tumani hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 88 ta (68,8%), savdoda 14 ta (10,9%), boshqa turlarida esa 9 ta (7,0%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqada 1 ta (0,8%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (3,9%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (2,3%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7 ta (5,5%) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa faoliyat turiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni




2018 yilning yanvar-oktyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 32 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Kosonsoy, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 18 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 noyabr holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 17014 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 6,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 6934 tasi (40,8 %) Namangan shahriga, 1375 tasi (8,1 %) Chust tumaniga, 1265 tasi (7,4 %) Namangan tumaniga, 1038 tasi (6,1 %) Uychi tumaniga hamda 1018 tasi (6,0 %) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 17014 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4896 tasi (28,8%)—savdoda, 4183 tasi (24,6 %) - sanoatda, 1501 tasi (8,8 %) - qurilishda, 1529 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 835 tasi (4,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 762 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 304 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 405 tasi (2,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2599 tasi (15,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktyabr holatiga 2530 taga kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 21,8 foizga ko'p. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahrida (910 ta), Chust (189 ta), Uychi (180 ta), To'raqo'rg'on (167 ta), Namangan (155 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiq'org'on (114 ta), Kosonsoy (129 ta), Mingbuloq, Chortoq va Pop tumanlarida (131 tadan) tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (762 ta), savdoda (586 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (258 ta) va qurilishda (179 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (104 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (75 ta) hamda axborot va aloqada (40 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,4 % savdoda, 20,0 % sanoatda, 7,1 % qurulish, 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 1,5 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 noyabr holatiga 320 tani tashkil etib, ulardan 312 tasi yoki 97,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 31,7 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 49,7 % yoki 155 tasi sanoat, 16,3 % yoki 51 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,9 % yoki 37 tasi savdo, 9,6 % yoki 30 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 2 tasi qurilish, 1,0 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 1,9 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,0 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan

Nashr uchun mas'ul: **A.Siddiqov**
(0369) 227-84-96